

TAQDIR PESHONA YOKI INSON QO'LIDA

Samarqand davlat chet tillar instituti

Narpay xorijiy tillar fakulteti

Xorijiy til va adabiyot yo'nalishi

3-bosqich 2303 guruh talabasi

Risbayeva Luna Askanbaevna

lunarisbay04@gmail.com

Ilmiy rahbar: Sadinov Ma'rufjon Normo'min og'li

Samarqand davlat chet tillar insituti

Narpay xorijiy tillar fakulteti o'qituvchisi

marufjonsadinov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatda fohishalik muommasi va uning sabablarini taqdir tushinchasi bilan bog'liq holda tahlil qilinadi. Foxishalikka olib keluvchi ijtimoiy, axloqiy va shaxsiy omillarini organib, bu foxishalik faqat taqdirga bog'liq emas balki u yolni ozlarining shaxsan sharoitadan, majburiyatlaridan yoki atrof-muhitning orqasidan va tasiridan kelib chiqishini yoritadi. Maqolada foxishalikni majburiy va ixtiyoriy yollar bilan tanlash uning sabablarida oilaviy muommalar, iqtisodiy qiyinchiliklar, zo'rovonlik yoki talimiy yetishmovchiliklar kabi omillar korib chiqiladi.

Shuningdek bunga degan jamiyatning va huquqiy munosabi qanday ekanligi ham tahlil qilinadi. Shu bois tadqiqotlarga qaraganda har bir kishining taqdiri oldindan yozilib qoyilgan bolsa ham ularning shaxsan ozlarining tanlovlari orqali hayot yolini o'zgartirishi mumkinligi takidlanadi. Ba'zi insonlar o'z hayotlarini "taqdir" bilan bog'lab, har qanday holatni oldindan belgilangan deb qabul qilishsa, boshqalar esa inson o'z hayotini o'zi boshqarishi mumkinligini ta'kidlaydi. Ushbu maqolada fohishalik holati taqdir bilan bog'liqmi yoki u ijtimoiy va shaxsiy omillar natijasi sifatida yuzaga keladimi, degan savolga javob izlaymiz.

Kalit so'zlar: taqdir, hayot yo'li, foxishalik, zo'rovonlik, shaxsiy tanlov, cheklovlar, axloqiy tamoyillar,

Taqdir nima? Taqdir-bu inson hayotida sodir bpladigan voqealar, tanlovlar va natijalarning majmuasi. Diniy va falsafiy nuqtai nazardan qaraydigan bolsak ko'plab dinlarda taqdir oldindan yani bizning peshonamizga ona qornida paydo bo'lishdan oldin yoziladi shuningdek Alloh insonning hayot yolini oldindan biladi va belgilaydi. Agar taqdir peshonamizga yozilgan bolsa nima uchun odamlar oz taqdirini o'zgartirish uchun harakat qiladilar? Peshonamizga shu yozilgan bizarning koradigan kunimiz shu ekan deb nima uchun jim gina otirib qoymaydilar?

Taqdirimiz peshonamizga yozilib qoygan bolsa nima uchun biz hayotimiz davomida har hil odamlarga duch kelamiz biri foxishalik bilan biri zorovonlik, qaysidirlari yaxshilik qilib yurganlarini korishimiz mumkun hattoki jimgini hech kimga yamonligi yoq yaxshiligi tegmay yurganlarini ham koramiz. Shunda yamon yol bilan yurganlar u ishlariga nima uchun javob berishi kerak ularning qanday gunohi bor shu yol bilan yurish yozilishga? degan turli hil savollar kelishi sozsiz.

Lekin uni hamma odam ham bilmaydi ozimiz u yo'lni tanlashimizni va bizning oldimizdan 100 hil yollar chiqishini balkim undan ham ko'p bolishini va oxirgi tanlov ozimizda ekanligini. Ilmiy va dunyoviy nuqtai nazardan ham korilib chiqilgan yani ba'zi mutafakkirlar va olimlar taqdirni oldindan yozilgan narsa deb emas ,balki insonning qarorlari,sharoit va tasodiflar natijasi deb tushintirilgan.Va buni tanlashimizga va oz taqdirimizni yaratishga turli xil sabablar bolishi mumkun.

Masalan: foxishalikga chorlaydigan sabablarni korib chiqadigan bo'lsak: Fohishalik dunyodagi eng qadimiy kasblardan biri bo'lib, uning paydo bo'lishi turli ijtimoiy, iqtisodiy va shaxsiy omillarga bog'liq. Ba'zi odamlar bu yo'lni tanlashni taqdir deb hisoblaydi, lekin aslida fohishalikning asosiy sabablarini quyidagicha tushuntirish mumkin: Qashshoqlik va ishsizlik ko'plab ayollarni va erkaklarni fohishalik bilan shug'ullanishga majbur qiladi.Oila va jamiyat tomonidan tashlab qo'yilgan yoki bosim ostida yashayotgan insonlar uchun bu eng so'nggi choraga aylanishi mumkun.Ko'plab hollarda fohishalar o'z ixtiyoriga qarshi ushbu yo'lga kirib qoladi. Savdo qilinayotgan ayollar yoki jinsiy ekspluatatsiyaga duch kelgan bolalar bunga misol bo'la oladi.Taqdir emas, balki jinoyatchilik va ekspluatatsiya bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Ba'zi odamlar fohishalikni ixtiyoriy tanlov sifatida ko'radi. Bunday shaxslar moliyaviy mustaqillik yoki erkin hayot tarzini maqsad qilgan bo'lishi mumkin.Biroq, bu tanlov ko'pincha ijtimoiy cheklovlar va axloqiy tamoyillar bilan bog'liq muammolarga olib keladi.Islom, xristianlik va boshqa dinlar fohishalikni gunoh deb biladi va insonning taqdirini yaxshilik sari o'zgartirish mumkinligini ta'kidlaydi. Qur'onda va Hadislarda inson o'z hayotidan javobgar ekanligi aytiladi. Shu bois, taqdir tushunchasi insonning o'z harakatlari va qarorlariga bog'liq bo'lishi mumkin.

Sharq falsafasida esa taqdir va erkin iroda bir-biriga bog'liq tushunchalar sifatida qaraladi. Insonning hayotda duch keladigan qiyinchiliklari uning oldindan belgilangan yo'li bo'lsa-da, u o'z taqdirini yaxshi tomonga o'zgartirish uchun harakat qilishi mumkinligi ham aytiladi.Bu nuqtai nazarga ko'ra, inson o'z hayotini o'zi quradi. Har bir qilingan qaror va harakat keyingi voqealarga ta'sir qiladi. Misol uchun, kimdir o'qish yoki kasb tanlashda astoydil harakat qilsa, yaxshi natijalarga erishadi.

Aksincha, dangasalik qilsa yoki noto'g'ri yo'l tanlasa, muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkin. Bu esa insonning hayoti qanday bo'lishi o'z qo'lida ekanligini ko'rsatadi. Sharoit va imkoniyatlar yuqorida aytib otgandek bu ham oz hayotini

ozgarishiga kata tasir qiladi. Ba'zan insonning hayoti uning tanlovlaridan tashqari, atrof-muhit va sharoitlarga ham bog'liq bo'ladi. Masalan, inson qaysi oilada tug'ilishi, qanday iqtisodiy va ijtimoiy muhitda o'sishi uning kelajagiga katta ta'sir qiladi. Biroq bu cheklovlar hayotni belgilab bermaydi – inson o'z ustida ishlasa, qiyinchiliklarni yengib o'tishi mumkin. Ilmiy nuqtai nazar: Tasodif va ehtimollar.

Fizika va psixologiya sohalarida inson hayoti ko'p jihatdan tasodiflar va ehtimollarga bog'liq deb qaraladi. Ya'ni, oldindan belgilangan taqdir yo'q, balki har bir qadamda yangi imkoniyatlar va ehtimollar paydo bo'ladi. Misol uchun, biror kishi tasodifan yaxshi bir inson bilan tanishib, hayotini ijobiy tomonga o'zgartirishi mumkin.

Xulosa. Islomda, taqdir (qadar) Alloh tomonidan oldindan belgilangan bo'lsa-da, inson erkin oz irodasiga egadir va o'z amallari uchun javobgardir. Fohishalik kabi gunohlar jazoga sabab bo'lishi mumkin, ammo chin dildan qilinadigan tavba orqali kechirilishi mumkin. Taqdir va fohishalik masalasini faqat bir tomondan ko'rib bo'lmaydi. Fohishalik ba'zan majburiyat, ba'zan esa ixtiyoriy tanlov sifatida yuzaga keladi. Ammo inson hayoti faqat taqdir bilan belgilanmaydi. Har bir shaxs o'z tanlovi va harakatlari orqali kelajagini o'zgartirishi mumkin. Jamiyat esa fohishalik muammosiga faqat axloqiy nuqtayi nazardan emas, balki uning ildiz sabablari bilan kurashish orqali yondashishi kerak. Taqdir inson hayotida muhim omil bo'lsa-da, shaxsiy qarorlar va ijtimoiy sharoitlar ham katta ahamiyat kasb etadi. Fohishalik muammosini hal qilish uchun faqat jazolash emas, balki ta'lim, iqtisodiy imkoniyatlar va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash kabi choralar ham zarur. Bu yondashuv shuni ko'rsatadiki, inson hayoti to'liq oldindan yozilmagan. Bizning harakatlarimiz, qarorlarimiz va sharoitlarimiz kelajagimizni shakllantiradi. Bu degani, inson o'z ustida ishlash, maqsadlar qo'yish va to'g'ri qarorlar qabul qilish orqali o'z "taqdirini" yaratishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qur'oni Karim. – Toshkent: O'zbekiston musulmonlari idorasi, 2018.
2. Imom Buxoriy. Al-Jome as-sahih. – Toshkent: Hilol nashr, 2019.
3. Abu Homid G'azzoliy. Ihyo' ulumid-din. – Qohira, XII asr.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri aholining qarashlari. – Toshkent: Fan, 2004.
5. Ibn Sino (Avicenna). Shifo kitobi. – Toshkent: Fan, 1980.
6. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
7. Nitshe F. Zardusht shunday dedi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
8. Kamyu A. Sizif haqida afsona. – Toshkent: Adolat, 2016.
9. Qodirov A. Axloq va jamiyat. – Toshkent: O'qituvchi, 2012.
10. Haydarov F. Islomda inson irodasi va taqdir masalasi. – Toshkent: Islom nashriyoti, 2015.